

**ERKIN IQTISODIY ZONALARGA XORIJIY INVESTITSIYALARINI JALB
QILISHNI FISKAL INSTRUMENTLAR ORQALI RAG‘BATLANTIRISH
MEXANIZMINI TAKOMILLASHTIRISH**

Nosirov Xusanboy Baxodir o‘g‘li

Andijon iqtisodiyot va qurilish instituti

“Tarmoqlar iqtisodiyoti” kafedrasи o‘qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada mamlakatimizda erkin iqtisodiy zonalarga xorijiy investitsiyalarini jalg qilishni fiskal instrumentlar orqali rag‘batlantirish mexanizmini takomillashtirish chora-tadbirlari chet el mamlakatlari tajribasi misolida o‘rganilgan.

Kalit so‘zlar: investitsiya, erkin iqtisodiy zona, mehnat taqsimoti, eksport.

Dunyoning ayrim mamlakatlarida erkin iqtisodiy hududlarning tashkil etilish darajasini tahlil etish natijalari shuni ko‘rsatadiki, eng ko‘p erkin iqtisodiy hududlar AQSH, Xitoy, Indoneziya mamlakatlarida tashkil etilgan bo‘lib, shunga mos ravishda ushbu hududlarda eksport qilingan mahsulotlar va xizmatlar hajmi, aholini bandlik darajasi yuqori hisoblanadi. Tayvan, Pokiston, Koreya Respublikasida erkin iqtisodiy hududlarning tashkil etilish darajasi ancha past bo‘lib, oxirgi yillarda ushbu mamlakatlarda olib borilgan iqtisodiy islohotlarni ustuvor yo‘nalishlarida erkin iqtisodiy hududlarni rivojlantirish masalasi asosiy vazifalardan biri bo‘lib qolmoqda.

Olib borilgan tadqiqot natijalariga ko‘ra, industrial rivojlangan mamlakatlardan farqli o‘laroq, rivojlanayotgan mamlakatlarda EIZlarni tashkil etishda chet el kapitali, texnologiyalarni jalg qilish, sanoatni modernizatsiyalash va ishchi kuchi malakasini oshirishga alohida e’tibor qaratilganligi o‘ziga xos xususiyat sifatida ajratishimiz mumkin. Qoloq hududlar va tarmoqlarni rivojlantirish maqsadida tashkil etilgan erkin iqtisodiy zonalar industrial rivojlangan mamlakatlarda keng tarqalgan (Buyuk

Britaniya, Germaniya, AQSH, Fransiya) bo‘lib, bunday EIZlarni boshqarish mexanizmining o‘ziga xos xususiyati milliy korxonalar uchun qulay iqtisodiy, ma’muriy va huquqiy shart-sharoitlarni yaratish va ular ishini faollashtirishga yo‘naltirilganligida ko‘rshimiz mumkindir.

Xorij tajribasi shuni ko‘rasatmoqdaki, ko‘pchilik xorijiy mamlakatlarda erkin iqtisodiy zonalarni muvaffaqiyatli ishlashi uchun ularni moliyaviy qo‘llab-quvvatlash va turli xil imtiyozlarni belgilash amaliyoti qo‘llaniladi. Bu birinchi navbatda, iqtisodiy imtiyozlarga tegishli bo‘lib, jumladan:

- import tovarlarni qayta ishslash bilan shug‘ullanadigan firmalarga yordam ko‘rsatilishi;
- erkin savdo zonalari uchun import masalalari bo‘yicha maslahatlar beradigan, ko‘rgazmalar va biznes-konferensiyalarni o‘tkazishni ta’minlaydigan axborot markazlarini tashkil etilganligi;
- zona firmalari uchun soliq va bojxona qonunchiligiga maxsus qo‘srimchalar kiritish asosida uning soddallashtirilgan tizimini taqdim etilganligi;
- kichik biznes sub’yektlariga alohida soliq rejimlarini qo‘llanilishi, kreditlarni sug‘urtalash bo‘yicha maxsus sharolarini amal qilishi va h.k.

Xorijiy mamlakatlar erkin iqtisodiy hududlarida amaldagi soliq rejimlarida asosan soliqqa tortiladigan daromadni kamaytirilishi, korxonalarning eksport operatsiyalariga nisbatan yengilliklarning mavjudligi, daromadning ushbu hududlarga qayta yo‘naltirilgan qismi foyda solig‘idan ozod etilishi, erkin iqtisodiy hududlarida iste’mol tovarlari importi soliqqa tortilmasligi, import qilingan asbob-uskunalar, butlovchi qismlar, transport vositalari bojxona bojlaridan ozod etilganligi kabi soliq imtiyozlari va preferensiyalar berilganligini ko‘rshimiz mumkin.

O‘zbekiston Respublikasi hududida erkin iqtisodiy hududlar faoliyatini soliqlar vositasida rag‘batlantirishga yordam beradigan quyidagi ilmiy taklif va amaliy tavsiyalar muhim ahamiyat kasb etadi:

1. Maxsus iqtisodiy zonalarning ishtirokchilariga soliq solish shartlarida maxsus iqtisodiy zonalarning ishtirokchilariga kiritilgan investitsiyalar hajmiga qarab, mol-

mulk solig‘idan, yer solig‘idan va suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliqdan O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori bilan belgilangan muddatga ozod qilish tarzida soliq imtiyozlari berilishi lozim.

2. Maxsus iqtisodiy zonalar ishtirokchilari:

Respublikada ishlab chiqarilmaydigan va investitsiya bitimiga muvofiq investitsiya loyihasini amalga oshirish uchun qurilish davrida belgilangan tartibda olib kirilgan qurilish materiallari uchun bojxona to‘lovlarini (bundan qo‘srimcha qiymat solig‘i va bojxona rasmiylashtiruvni uchun yig‘imlar mustasno);

tasdiqlangan ro‘yxat bo‘yicha texnologik uskunalarining o‘xshashi O‘zbekiston Respublikasida ishlab chiqarilmaydiganini olib kirishda bojxona to‘lovlarini (bundan bojxona rasmiylashtiruvni uchun yig‘imlar mustasno) to‘lashdan ozod etilishi maqsadga muvofikdir.

Maxsus iqtisodiy zona ishtirokchilari tovarlarni import qilganda qo‘silgan qiymat solig‘ini 120 kungacha muddatga kechiktirib to‘lashi mumkinligi, hisoblangan soliq summasidan hisobga olinadigan qo‘silgan qiymat solig‘i summasining oshib ketishi natijasida hosil bo‘lgan qo‘silgan qiymat solig‘i summasining o‘rni maxsus iqtisodiy zona ishtirokchisiga yetti kun davomida soddalashtirilgan tartibda qoplab berilishi lozimdir.

3. «Navoiy» EIZ direksiyasi» AJ erkin iqtisodiy zonalar faoliyatining butun davrida soliqlar to‘lashdan ozod etilishi bo‘yicha bo‘yicha berilgan imtiyozini bekor etish.

4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 26-oktabrdagi "Erkin iqtisodiy zonalar faoliyatini faollashtirish va kengaytirishga doir qo‘srimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida"gi PF-4853-sonli Farmonining 3-bandi ikkinchi xatbosisi: "Erkin iqtisodiy zonalar ishtirokchilari yer solig‘i, daromad solig‘i, yuridik shaxslar mulk solig‘i, mikrofirmalar va kichik korxonalar uchun yagona soliq to‘lovini to‘lashdan ozod etilsin", -aks ettirilishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mirziyoyev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. "O'zbekiston" NMIU, 2017.
2. Rossiya Federatsiyasining 2005-yil 22-iyuldagи "Rossiya Federatsiyasi hududidagi erkin iqtisodiy zonalar to'g'risida"gi №116-FQ-sonli Qonuni.
3. Мировая экономика и международные экономические отношения. Учебник под ред. А.С.Булатова. 3-е изд., стер.-Москва: КНОРУС, 2017